



**O'zbekiston Respublikasi**  
**Qonuni**

**2024-yil uchun O'zbekiston**  
**Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida**

**O'RQ-886, 25.12.2023-y.**

“2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonun Prezident tomonidan imzolandi (*O‘RQ–886, 25.12.2023-y.*).



# Qonunga ko'ra

Qonun bilan 2024-yil uchun O'zbekistonning konsolidasiyalashgan budjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solindi.

Ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik milliy va davlat dasturlariga ajratiladigan grant mablag'larining belgilangan miqdorlari Qonunga o'zgartish kiritilmasdan ko'paytiriladi.



O'zbekiston budget tizimi byudjetlarining **6 oylik** ijrosi yakunlari bo'yicha daromadlari prognozi bajarilmagan va joriy moliya yilining oxiriga qadar ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo'lmagan hollarda:

- respublika byudjeti umumiy xarajatlarining **3 va undan ortiq foizi** miqdoridagi xarajatlarni qisqartirish **Oliy Majlis palatalari** tomonidan;
- **3 foizdan kam** miqdordagi xarajatlarni qisqartirish **Vazirlar Mahkamasi** qarori asosida amalga oshiriladi.



O'zbekiston nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlarining cheklangan sof hajmi **25 trln so'm** miqdorida belgilandi.

2024-yil uchun O'zbekiston konsolidasiyalashgan budjeti taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotning **4 foizi** miqdorida belgilandi.



Qonunga ko'ra, jumladan soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to'liq hajmda o'tkaziladi:



- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklarasiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek YATTLar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;
- noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

**E'tiboringiz uchun rahmat!**

